



Received: January 11, 2025
Accepted: March 23, 2025
Available online: March 25, 2025

Muhayyo Majidova

O'qituvchi
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O'zbekiston

SHVEYTSARIYA ADABIYOTIDA QISQA NASRIY JANRLARNING EVOLYUTSIYASI: PETER BIKSELNING HISSASI

ANNOTATSIYA

Tadqiqotning maqsadi – shveysariyalik yozuvchi Peter Bixel ijodi misolida matn va uning shakllari, shu jumladan, adabiy janrlar, kichik janrlar hamda kolumne va kichik hikoya kabilarni ularning shakl-mazmuni va vazifasiga ko'ra farqlanishiga ko'ra yoritishdan iborat.

Jahon adabiyotshunosligida zamonaviy adabiy jarayonni tahlil qilish, adabiy janrlar harakati mantig'i, mohiyatini anglash, zamonaviy yozuvchilar ijodiga teran nazar tashlash tadqiqotning vazifasi hisoblanadi. Shu bilan birga, kichik janrlar bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borish, xususan, zamonaviy yozuvchilar, ayniqsa G'arbiy Yevropa adabiyoti namoyandalarning kichik nasriy asarlari poetikasini tahlil qilish ham muhimdir.

Tadqiqotda qiyosiy-tarixiy va matn tahlili usullaridan foydalanildi, shuningdek, kolumne janri boshqa matn turlari bilan qiyoslandi, farqli va o'xshash jihatlari ko'rsatib berildi. Bundan tashqari, maqolada kichik janrlar tadqiqot markazida bo'ldi va adib P.Bixelning "Qiz" ("Tochter") hikoyasi tahlil qilindi. Matn tahlilidan avval jahon adabiyoti tarixidagi "janr" va nemis tilidagi "Gattung" tushunchalarining o'rganilishi o'rganildi, dunyo olimlarining bu masala doirasida bildirgan fikrlaridan iqtiboslar keltirildi.

Tadqiqot natijalarida janr masalasiga munosabat va uni o'rganish adabiyotshunoslikda hamon dolzarb ekanligi va kichik janrlar mutaxassislar tomonidan turli rakurslarda tadqiq etilayotganligi ta'kidlanib, kichik hikoyaning o'ziga xosliklari, muhim sifatleri ko'rsatilgan. Ushbu adabiy matn to'g'ridan to'g'ri voqealar bilan boshlanishi va

Muhayyo Majidova

Teacher
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: mukhayyo.84@mail.ru
ORCID iD: 0009-0004-1087-3662

THE EVOLUTION OF SHORT PROSE GENRES IN SWISS LITERATURE: PETER BICHSEL'S CONTRIBUTION

ABSTRACT

The objective of this research is to categorize the texts and their various forms, including literary genres and sub-genres, as well as columns and short stories authored by the Swiss writer Peter Bichsel, based on their form, content, and function.

This study also explores the concept of genre, its classifications, and its examination within literary studies. In the context of world literature, the research aims to analyze the contemporary literary process, comprehend the dynamics and essence of literary genre evolution, and conduct an in-depth examination of the works of modern authors.

The research employs comparative-historical and textual analysis methods, comparing the column genre with other text types to highlight differences and similarities. Furthermore, the study focuses on literary genres, including sub-genres, and provides an analysis of the short story "Girl" ("Tochter") by the writer P.Bichsel.

The findings of the article underscore that the issue of genre has consistently been a significant topic in literary studies, with the study of sub-genres being approached from various expert perspectives. The distinctiveness and characteristics of the short story are also enumerated, noting that this literary form often begins with direct events and concludes with an open ending.

In conclusion, the article delineates the stages of the emergence and development of short stories within Swiss literature. Additionally, it addresses the historical introduction of the "column" genre

yakuni ochiq qoldirilishi bilan ham xarakterlidir. Bu bilan yozuvchi o'quvchini fikrlashga, voqealarni tahlil qilishga undab, yakuniy xulosani uning ixtiyorida qoldiradi.

Xulosa qismida Shveytsariya adabiyotida kichik hikoyalarning paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlari xususidagi fikrlar umumlashtirildi.

Maqolaning bosh mavzusi kichik hikoyalarni qatorida kolumne janrining adabiyotga kirib kelish tarixi va uning boshqa janrlardan farqlari haqidagi xulosalar taqdim etildi. Bu borada matn turlarini o'rganib chiqib, kolumne matn turi na faqat jurnalistik, balki badiiy matnlar tarkibiga ham kiradi, faqat ular uslubi, hajmi va mazmuniga qarab farqlanadi, degan qarorga keldik.

Kalit so'zlar: matn, badiiy matn, farqlash, shakl, mazmun, vazifa, qo'llamoq, badiiy tahlil, janr, kichik hikoya.

into literature and its distinctions from other genres. The study concludes that the "column" type of text is incorporated not only in journalistic but also in artistic texts, differentiated by style, size, and content.

Key words: text, artistic text, differentiation, form, content, task, application, artistic analysis, genre, short story.

KIRISH

Ababiyot va adabiy matn hamda asarlar xalqimizning tarixi, madaniyati, yashash tarzi, san'ati, qolaversa, ma'rifat va ta'lim-tarbiyasini ko'rsatib beradi, shuning uchun ham "Adabiyot – millat ko'zgusi", deb bejizga aytilmagan.

Matn (text) so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, "textura", ya'ni "to'qilgan mato" ma'nosini ifodalaydi va bu so'zlarning ma'noviy bir-biri bilan bog'lanishi orqali hosil bo'ladi. Ushbu tushuncha ilk bor 18-asrda kirib kelgan bo'lib, matn orqali ulkan bilim almashinuvi va axborotlarni kerakli algoritmgaga yetkazishga erishish mumkin. Matnlar bir-birimizni tushinishga asos bo'ladi va bunga ko'pincha kundalik hayotda e'tibor qaratilmaydi. Biz ularga turli vaziyatlarda duch kelamiz va ularni turli kontekstlarda ishlatamiz. Bundan tashqari, matnlar insonlarning birgalikda yashash elementi bo'lib, mavjud bilimlarni uzatish va saqlashga yordam beradi. Biz o'zi uchratgan muammo haqida bayon qiluvchidan ma'lumot olamiz va uni to'g'ri yo'lga yo'naltiramiz. Bilimlarni uzatishning katta qismi matnlar orqali sodir bo'lganligi sababli, matnlar fundamental evolyutsion ahamiyatga ega. Avval og'zaki, keyinroq yozma va endi elektron shaklda ham matnlarni yozib olish mumkin. Shunday tariqa bizning butun madaniyatimiz asoslanadi [Christian, 2009].

Matnlar analitik tahlil qilinganda, ular so'zlashuvdagi va tilshunoslikka oid matn tushunchalarga ajratilgan. So'zlashuvdagi matnlar ma'lum o'ziga xos xususiyatlarga ega emas va ular ifoda etilishiga ko'ra turlicha makonga ega [Heinemann, 2000]. Bu holatda matnni tushunish, uni ifoda va qabul qiluvchi hamda aloqa vaziyatiga bog'liq. U.Pushelning ta'kidlashicha, matnga u faqat qayd etilgan va o'zgartirilmaydi deb qaralmaydi, chunki u qabul qiluvchi yoki foydalanuvchi ta'sirida dinamik va o'zgaruvchan elementlarni ichiga oladi [Püschel, 1997]. Matnni yetkazuvchi o'zining maqsadlarini inobatga olib, matnni ifodalaydi. Matn bu tasodifiy mahsulot emas, balki u qayta ishlash va tanlash jarayonining so'zdagi ongli ifodasidir. Qabul qiluvchi matnni tushunishga harakat qiladi va bu jarayon turli darajalarda amalga oshiriladi.

So‘zlashuvdagi matnlarni “matn” deb ta’riflash haqida juda ko‘p turli xil fikrlar mavjud. K.Brinkerning fikricha, matn ma’lum yozma til birliklariga ega bo‘lishi va qoidaga ko‘ra, bitta gapdan ortiq bo‘lishi kerak [Brinker, 2005; 11]. F.Yurgens esa uning fikrini inkor etib, og‘zaki va yozma matn orasida katta chegaralashuv yo‘q, balki ikkila holatda ham ma’lum o‘xshashliklar bor deydi [Jürgens, 2005; 26]. Y.Shvitala ham uning fikriga qo‘shilib, matn to‘rtta xususiyatga ega bo‘lishi kerakligini bildiradi, jumladan: (1) muayyan mazmun va strukturaga ega bo‘lishi; (2) matniy ketma-ketlik bo‘lishi; (3) maqsad yoki vazifaning mavjudligi; (4) boshi va yakunining mavjudligi [Schwitalla, 2012].

Xalqaro miqyosda ham “matn” atamasi uchun yagona ta’rifni berishga urinishlar ko‘p oshirilgan. Yevropa Kengashi buni 2001-yili aniqlagan [Adamzik, 2005; 214], ya’ni umumiy Yevropa bo‘yicha (xorijiy) tillarni o‘qitishni tashkil qilishda “matn” so‘ziga quyidagicha ta’rif beriladi: “Matn” atamasi barcha til bilan bog‘liq jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu til foydalanuvchilari/o‘quvchilari qabul qiladigan, ishlab chiqaradigan yoki ishlatgan almashish – bu og‘zaki bayonot yoki yozilgan narsa bo‘ladi. Shuning uchun, matnsiz til orqali muloqot bo‘lishi mumkin emas. Matnlar ijtimoiy hayotda juda ko‘p turli funksiyalarni bajaradi va shakli hamda mazmuniga ko‘ra farqlanadi. OAVlarida matndan turli maqsadlarda foydalaniladi. Taqdim etilgan ma’lumot mazmuni va uzatilishiga ko‘ra turlicha bo‘lishi mumkin. Shu sababli, matnlar har xil tur va janrlarga tegishli bo‘ladi [Trim u.a., 2001].

Yozuv paydo bo‘lmasidan oldin, matnlar og‘zaki shaklda tildan-tilga o‘tib kelgan va shu orqali xalqlar orasida turli madaniyatlar shakllanib borgan. Matnlarni tahlil qilib chiqsak, ular so‘zlashuv va lingvistik jihatdan farqlanadi. Nemis tilida juda ko‘p matn turlari mavjud bo‘lib, ular turi va vazifasiga ko‘ra, nemis adabiyoti va OAVlarida turli nom va shakllarda aks etadi. Matn turi deganda o‘xshash xususiyatlarga ega bo‘lgan matnlar guruhi tushuniladi. Bunday guruhlarini matn-ichki va matn-tashqi mezonlar yordamida bir-biridan farqlash mumkin.

Matn turlari

Asosan, matnlar badiiy va badiiy bo‘lmagan turlarga ajratiladi. Adabiy matnlarga romanlar, novellalar yoki qisqa hikoyalar kirsam, badiiy bo‘lmagan matnlarga hisobotlar, insholar yoki sharhlar kiradi [Adamzik, 2005; 222]. Matn turini aniqlash uchun ularning xususiyatlarini farqlovchi mezonlarni yaxshi bilish lozim. Umuman olganda, matnning ichki va tashqi mezonlarni farqlash kerak: matnning ichki nuqtalari matn mazmuniga ta’sir qiluvchi barcha elementlarni o‘z ichiga olsa, matnning tashqi mezonlari ko‘proq uning tashqi ko‘rinishi va o‘lchamlariga bog‘liq bo‘ladi. Shunday ekan, matnning ichki mazmun xususiyatlarini inobatga olgan holda, berilgan matn real voqelik yoki fantastik obrazlar asosida yozilganligi ham asosiy o‘rin tutadi. Badiiy matnlar ko‘pincha o‘ylab topilgan voqealarga asoslansa, bunga qarshi badiiy bo‘lmagan matnlarda real voqelik tasvirlanadi va uning qahramonlari hayotdan olinadi. Matnning ichki mezonlaridan biri uning yozilgan uslubidir. Matndagi so‘zlar tanlovi, jumalarning tuzilishi ham uning turini aniqlashga katta yordam beradi. Agar matn kundalik hayotimizda kam qo‘llaniladigan va aksincha adabiy tilga xos bo‘lgan so‘zlarga boy bo‘lsa, demak, bu badiiy matn turi hisoblanadi. Bularning barchasi matnning ichki mezonlarini aniqlab

bersa, matnning chop etilgan shakli uning tashqi belgilarini ko'rsatadi. Masalan, badiiy matnlar ko'pincha kitob ko'rinishida bo'lsa, badiiy bo'lmagan matnlar ko'proq xabar va sharh shaklida namoyon bo'ladi, masalan, jurnalistlar biror voqea haqida ommaga xabar beradi yoki uni sharhlaydi va bu matnlar gazeta va jurnallarda chop etiladi [Adamzik, 2018; 157]. Lekin nemis tilida shunday matn turi mavjudki, uni mazmun va shakliga ko'ra, ba'zan badiiy va ayrim hollarda badiiy bo'lmagan matn turi sifatida farqlaymiz. Ushbu matn turi – *kolumne* deb nomlanib, “Kommentar”, “Glosse” kabi badiiy bo'lmagan matn turlari bilan birga tilga olinadi.

Kolumne nima? *Kolumne* so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, “ustun” degan ma'noni anglatadi, gazeta yoki jurnalda ustun shaklida berilgan bo'lib, matbuotda, shuningdek, bosma va onlayn OAVlarida qisqa matn shakli hisoblanadi [“Kolumne”, o.J.]. *Kolumne* nemis gazetalari landshaftiga juda kech kirgan, u asosan AQSh gazetalari orqali Germaniyada ommalashgan. Mashhur ingliz kolumnistlari V.Lippman, J.Reston va S.L. Sulzberger bu sohada o'zlarini maktablarini yaratishgan.

Kolumne muallifning shaxsiy fikrini aks ettiradi va odatda doimiy ravishda bir turdagi gazeta yoki jurnalda va bir xil sahifada chop etiladi. Kolumnelar ba'zan muharrirlar, ba'zan esa taniqli mehmon mualliflar tomonidan yoziladi, lekin shu bilan birga, mashhur kolumnistlar ham bo'lib, ular o'zlarining matnlarini doimiy ravishda chop etib boradilar. Bularga misol qilib N.Blome, A.Klaus, M.Feldenkirchen, S.E. Uvassil va boshqalarni aytish mumkin [Majidova, 2023c; 131].

***Kolumne* mavzusi**

Yaxshi *kolumne*, birinchi navbatda, aniq, qisqa va muallif fikri asosli, shuningdek, boshqalarni ishonтира oladigan bo'lishi kerak. *Kolumne* har qanday mavzuni o'z ichiga olishi mumkin. Ular ko'pincha dolzarb yangiliklar yoki fikrlar ifodasiga asoslanadi va mutlaqo erkin mavzuda ba'zan sarlavhasiz ham bo'lishi mumkin. Masalan, pazandachilik, salomatlik, ilm-fan, odob-axloq qoidalari, kundalik tashvishlar, ot-onalar tarbiyasi, biznes va boshqa ko'plab sohalarga oid ruknlar aks etadi va mavzular ko'pincha o'sha gazeta yoki jurnalning tematikasiga ham bog'liq bo'ladi. Matnning sarlavhasi, masalan, “So'ragan edingizmi?”, “Yaxshi savol” yoki “Eshitganmisiz?” deb jaranglasa, o'quvchini qiziqishini oshiradi va har qanday mavzuga mos keladi. Agar *kolumne* ma'lum bir mavzuga mos keladigan bo'lsa, albatta, aniqroq nomga ega bo'lishi kerak. Ko'p hollarda *kolumne* matnlari doimiy mualliflarga ega va o'quvchilar ularning uslub va mavzularidan tezda tanib oladilar. Chet tilini o'qitishning maqsadi nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarining ko'nikma va malakalarini shakllantirishdir [Majidova, 2023b; 741].

***Kolumne* uslubi**

Til nuqtayi nazaridan, *kolumne* boshqa jurnalistik matnlarga qaraganda biroz soddaroq va ohangi ham balandroq bo'lishi, natijada u butun tahririyatning fikrini emas, balki individual fikrni aks ettirishi lozim. Shuningdek, *kolumne* matnini o'ziga xos rang va xarflarning kattaligi yoki oddiygina tanish bo'lgan sarlavha bilan berib borilishi orqali uni gazeta va jurnalda boshqa matnlardan ajralib turishiga erishish mumkin. Kolumnistlar odatda o'z matnlarini yozishda o'ziga xos uslubga ega

bo'ladilar. *Kolumne* deyarli har doim birinchi shaxsda yoziladi va unda ko'pincha kundalik voqealar haqida so'z boradi. Ba'zi OAVlari *kolumne* matnlarini har kuni, boshqalari haftalik yoki oylik ruknlarni nashr etishi mumkin.

Kolumne juda qisqa, o'rtacha 400 tadan 500 tagacha so'zdan iborat bo'lib, odatda, matn orasida qisqa sarlavhalar berilmaydi va bir yaxlit matn sifatida chop etiladi. Kolumneda odatda mavzu kirish bilan boshlanib, kundalik kuzatuvlar yoki original bayonotlar ham aks etadi. Keyin asosiy qismda muallifning fikri bayon qilinadi va odatda dalillar yoki qisqa xulosa bilan tugatiladi.

Kolumne, kommentar, glosse

Har bir fikr ifodalovchi matn *kolumne* bo'la olmaydi. Misol uchun, u ba'zi jihatlari bilan blog, glosse yoki sharhdan farq qiladi. Shaxsiy bloglar yoki shunga o'xshash matnlar odatda "kolumne" deb atalmaydi. Bugungi kunda *kolumne* atamasiga hali ham OAVlarining bosma yoki onlayn nashrlarda jurnalistik formatga ega bo'lgan matn turi sifatida qaraladi. *Kolumne* – jurnalistik sharhning maxsus shakli. Sharh, ya'ni kommentar hozirgi yangiliklarga fikr bildiruvchi bo'lsa-da, *kolumne* yangiliklarga aloqador bo'lmasligi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, odatda komentarda muntazamlik bo'lishi shart emas, *kolumne* esa doimiy rukn va nashrga ega bo'ladi.

Komentar – fikrlar tasviri, masalan, muallif yangiliklarga komentar yozishi va o'z fikriga tayanib xulosalar berishi mumkin, shu o'rinda tanqid va tavsiyalar ham beriladi.

Xabar obyektiv faktlarni taqdim etishi, dolzarb bo'lishi va muhim ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak. Xabarlar "kim?", "nima?", "qachon?", "qayerda?", "nima sababdan?" va "oqibati nima?" kabi savollariga javob beradi va hech qanday holatda muallifning shaxsiy fikrini o'z ichiga olmaydi. Ular qisqa, tushunarli bo'lishi va nima sodir bo'layotganini aniq ko'rsatishi kerak. Matn eng muhim voqea bilan boshlanadi.

Glosse, dolzarb voqealarga e'tibor qaratib, ularga istehzoli munosabatda bo'lib kinoya orqali fikr bildiradi olishi bilan farq qiladi. Boshqa tomondan, u stilistik jihatdan yuqori darajaga ega bo'lib, so'z borayotgan mavzuga nisbatan yuqori darajadagi bilimlarini ham talab qiladi.

Kolumne qaysidir ma'noda sharhning o'ziga xos shaklidir, ular muntazam ravishda paydo bo'ladi va odatda bir xil muallif tomonidan yoziladi. Bu yerda muallif ko'pincha birinchi shaxsda yozilgan voqeani aytib beradi. *Kolumne* fikr-mulohazadir, lekin u yangilik yoki xabarni o'z ichiga olmaydi. Xabar yoki yangilikning muallifi mavjud mavzuni yoritisa, kolumnistlar mavzuni o'zlari topishlari kerak.

Badiiy kolumne

Yuqorida matn turlari haqida so'z borganda, "nemis tilida shunday matn turi mavjudki, u mazmun va shakliga ko'ra, ba'zan badiiy va ayrim hollarda badiiy bo'lmagan matn turi sifatida farqlanadi" degan fikr bildirilgan edi. Shu o'rinda, "kolumne" matn turi ushbu ta'rifimizga misol bo'la oladi. U uslub va shakliga ko'ra, nemis adabiyotida "kolumne" janri bilan kelgan va badiiy matn turlari sifatida ham o'rin egallagan. Bunga misol qilib, shvetsariya yozuvchisi, taniqli kolumnist P.Bikselni aytib o'tishimiz joiz. U 1975-yildan boshlab, 30 yil davomida gazeta va

jurnallarda 300dan ortiq badiiy *kolumne* matnlarini yozgan va ular kundalik hayot tarzi, uchrashuvlar, sevgi izhori mavzularida bo'lgan ["Kolumne", o.J.].

P.Bikselning 70 yoshlik tavallud kuniga "Suxrkamp" nashriyoti uning barcha kolumnelari jamlangan to'plamni sovg'a qilgan [Biksel, 2015]. Mashhur yozuvchi P. fon Matt "100 yildan so'ng ham P.Biksel kitoblarida bugungi Shvetsariyaning minglab nomsiz ovozlari uchratish mumkin. Bu ovozlari isyon qiladi, ba'zan xo'rsinadi va ba'zan g'o'ldiraydi, ularning ortida inson chehralari paydo bo'ladi, uning kitoblari har qanday davrga mos, ularni 100 yildan keyin o'qisalar ham o'z ahamiyatini yo'qotmaydi!" degan edi u P.Biksel ijodiga baho berib. Yana bir yozuvchi Manfred Redemaxer P.Bikselning kolumnelar to'plami haqida gapirib, "Peterning ushbu kitobga tushirgan har bir so'zi alohida tahsinga loyiq!" deb ta'riflagan edi. P.Biksel "Bemavrid hikoya", "Poyezddagi sayohat", "Eshakning ko'ngli", "Jonson bugun kelmaydi" kabi *kolumne* matnlarini yozgan.

Matn turlarini o'rganib, shunday xulosaga keldikki, "kolumne" matn turi nafaqat jurnalistik, balki badiiy matnlar tarkibiga ham kiradi, faqat ular uslubi, hajmi va mazmuniga qarab farqlanadi. Bugungi kun o'quvchisi matn turlarini yaxshi bilishi va to'g'ri farqlay olishi lozim, shu jumladan, kolumne, komentar va glosse matnlari bir-biriga o'xshash bo'lsa-da, lekin ular ma'lum jihatlari bilan ajralib turadi. Bugungi kundagi metodikaning talabiga ko'ra, darsda o'qituvchi asosiy markazda bo'lmasligi, aksincha, o'quvchi bosh obraz roliga bo'lishi ta'kidlanadi [Majidova, 2023a; 62]. O'ylaymizki, badiiy matnlar orasida o'rin olgan kolumnelarni o'quvchilar sevib o'qishadi va kelajakda o'zbek adabiyoti maydonida ham mashhur kolumnistlar yetishib chiqadi.

TADQIQOT METODLARI

Tadqiqot metodi sifatida qiyosiy-tarixiy va matnning badiiy tahlili usullaridan foydalanildi. Muayyan xalq adabiyoti va san'atining taraqqiyot tendensiyalarini, uning tarixiy rivojidagi bosqichlarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishda, shubhasiz, qadimdan mavjud va yangi yuzaga kelgan janrlarga, ulardagi milliy qirralarga alohida e'tibor va ehtiyotkorlik bilan qarash adabiy jarayon spetsifikasini aniqlashda, tahlil qilishda muhim me'yor bo'lib xizmat qiladi. Ilmiy izlanishlar davomida "janr" tushunchasining tarixiy kelib chiqish bosqichlari o'rganilib, o'sha davrdan to hozirgacha ijod qilib, ushbu tushunchaga munosabatlarini bildirgan adabiyotshunos olim, shoir va yozuvchilarning fikrlari o'rganildi, o'xshashlik va farqlar qiyoslandi.

Shu bilan birga, hikoyanavis yozuvchi P.Biksel ijodiga nazar solib, uning ijodidagi kichik hikoyalar tadqiqotimiz markaziga tortildi. Jumladan, yozuvchi qalamiga mansub "Qiz" ("Tochter") kichik hikoyasi tahlil qilindi va shu orqali kichik hikoya va *kolumne* o'rtasidagi farq va o'xshashliklar ko'rsatib berildi. Asar kichik hikoya uslubiga xos ravishda to'g'ridan to'g'ri voqea bilan boshlanib, yakuni ochiq qoldirilgan. Yozuvchi bu orqali o'quvchini o'ylashga va fikrlashga chorlaydi hamda voqealar rivojini o'quvchining ixtiyorida qoldiradi.

NATIJALAR

Zamonaviy adabiyotshunoslikda kichik nasriy janrlar haqida to'xtalishdan

oldin, avvalo, janr tushunchasiga ta'rif keltirish lozimdir. Janr atamasi fransuzcha "genre" (tur, jins) so'zidan olingan bo'lib, badiiy asarlarning o'ziga xos kompozitsion qurilishga, badiiy tasvir prinsiplari va vositalariga, bayon usullariga, hayotiy qamrov imkoniyatlariga ko'ra turkumidir [Hotamov & Sarimsoqov, 1979; 104].

Adabiyotshunoslikda janr Aristotelning "Poetika" asarida tasniflangani kabi epos, lirika va drama kabi uch katta guruhga ajratiladi. Aristotel san'at va adabiyotni "tabiatdan nusxa ko'chirish" deb talqin qiladi va janrlarni o'zaro uch jihatdan farqlanishini ko'rsatib o'tadi: "tasvirlashning turli vositalari bilan, tasvirlash predmeti bilan, rang-barang noo'xshash usullar bilan" [Aristotel, 1980]. Yevropa adabiyotida ham janr istilohi borasida turlicha yondashuvlar olg'a suriladi. Nemis adabiyotshunosi U.Shpyurlning ta'rificha, "janr atamasi – nafaqat umumiy ma'no kasb etadi, balki alohida mazmunga egaligi bois ham muammoli hisoblanadi. Janrning uchga bo'linishi uning eng asosiy xususiyatidir" [Spörl, 2004; 141]. Nemis adabiyotshunoslari H.Brakkert va Y.Shtyukrat esa, "janr – xuddi bir necha tashkilotlarni o'zida birlashtirgan institutdir. Uning tarixi uzoq o'tmishga borib taqalsa-da, kelajagi hamon mavhumdir. Janr muammosi bilan har bir zamon olimlari shug'ullansalar-da, u haqidagi aniqlik – janrning trio, ya'ni uchlikdan iborat ekanligi haqidagi xulosadir. Janr – aslida adabiy tur sifatida namoyon bo'lishi lozim edi, shundagina masala oydinlashardi, biroq u hamonki adabiy shakl ekan, adabiyotshunoslar bu haqida hali uzoq bosh qotirishlariga to'g'ri keladi" [Brackert & Stückrath, 1992; 265], deb ta'kidlaydi. G.V.F. Gegelning aytishicha, janr – "ifoda vositasi", Y.V. fon Gyote esa "she'riyatning tabiiy shakli" deb ataydi. F.Shlegel jamiki janrlarni yagona "universal poeziya" tarkibiga birlashtirish lozimligini aytadi.

Nemis adabiyotida janr so'zi o'rnida "Gattung" atamasi ishlatiladi, matnlarning shakl va mazmun jihatidan guruhlariga bo'linishiga nisbatan tatbiq etiladi. Adabiy janrlarni belgilashda ikki asosiy omil mavjud: birinchisi, normativ tarixiy-falsafiy yoki antropologik prinsiplarga asoslansa, ikkinchisi kommunikativ va tarixiy xarakter kasb etib, uning ildizi adabiyot tarixiga borib taqaladi. Masalan, adabiy janrlar konsepsiyasidan ilhomlanib, mahshur nemis sotsiologi T.Lukman hayot olamidagi o'xshash rasmiy spetsifikatsiyalar haqida o'ylay boshlaydi va og'zaki kommunikativ janrlar tushunchasiga duch keldi: "barcha jamiyatlarda ma'noning stilistik birliklari kommunikativ janrlar sifatida obyektivlashtiriladi va ma'no hosil qiluvchi an'analarni shakllantiriladi. Kommunikativ janrlar konsepsiyasining o'zi 1960-yillardan beri aloqa etnografiyasida qo'llanilmoqda – jamiyatda kommunikativ muammolarni hal qilish va a'zolar tomonidan muntazam ravishda amalga oshiriladigan zaif yoki ko'proq institutsionallashtirilgan kommunikativ naqshlar sifatida tushunish kerak va bu jamiyatda subyektiv ravishda umumiy kundalik voqelikni qurish uchun foydalaniladi [Bergmann, 2016].

K.Myuller Dyesning fikricha, janr xususiyatlari ixtiyoriy yoki ma'lum qoidalarga asoslanib shakllanadi [Müller-Dyes, 1978; 13]. E.Marsh uning fikriga o'xshash fikr bildirib, janrning tasnifi asosiy o'zak va qo'shimcha xususiyatlar orqali ifodalanishi mumkinligini ta'kidlaydi, biroq bu usul bilan amaliyotda muammolarga duch kelish mumkin, chunki mavjud matn qaysi davrga tegishli va qaysi janr xususiyati asosida

shakllangan, ularni tahlil qilish anchagina qiyinchilik tug'diradi. E.Marshning o'zi ham bu fikr tasdiqlanmaganligi, agar shunday bo'lsa, adabiyotshunoslikda subyektiv qarashning o'sib ketish xavfi kuchli ekanligini aytadi [Marsch, 1979; 114].

Boshqa badiiy bo'lmagan matnlar qatorida badiiy matnda ham o'quvchi janrlarni yaxshi tushunsa va ularni to'g'ri ajrata olsa, o'qiyotgan matnining mazmun mohiyatini angalashi oson bo'ladi. Masalan, birgina nemis adabiyotida badiiy janr sifatida asosiy o'rin tutgan kichik hikoyalarni tushunish biroz murakkab, lekin o'quvchi bu adabiy tur haqida bilsa, jumladan, kichik hikoyalarda odatda voqea kulminatsion nuqtalardan boshlanishi yoki ularda yakuniy qism bo'lmasdan, ko'proq o'quvchini fikrlashga qaratilgan bo'lishi yoki bosh qahramon aniq ko'rsatilmashligini bilsa, mazkur hikoyaga to'g'ri yondasha oladi va voqealar jarayonini oson tushunadi. Badiiy janrni asosiy xususiyatlarini bilish, matnni o'qish va uni tushunishda muhim ahamiyatga ega. E.Marsh janr haqida o'z yondashuvlarini bayon qilgan, unga ko'ra janr: genetik, organologik, fonemenlogik va psixologik xususiyatlarga ega [Marsch, 1979]. K.V. Hempfer janrning o'ziga xosligidan kelib chiqib, funksional va tarixiy yondashuvlarni davom ettiradi [Hempfer, 1973; 28].

Adabiy tur va janrlar masalasida V.G. Belinskiy o'zining "Poeziyaning turlarga va xillarga bo'linishi" asarida ham qimmatli fikrlarni olg'a suradi: "Poeziya ideyaning ma'nosini tashqi ko'rinishda ifodalaydi va ma'naviy dunyoni butunlay aniq, plastik obrazlarda uyushtiradi. Bunda hamma ichki ma'no tashqi ko'rinishga chuqur singib ketadi va bu ikki tomon – ichki va tashqi tomonlar – bir-biridan ayrim holda ko'zga ko'rinmaydi, ammo bevosita jam holda olganda ular aniq, o'z qobig'iga o'zi burkangan reallikni – voqeani gavdalantiradi. Bunda shoir ko'zga ko'rinmaydi; plastik muayyan dunyo o'z-o'zidan taraqqiy etadi, shoir esa o'z-o'zidan vujudga kelgan hodisaning go'yo oddiy bir hikoyachisigina bo'lib qoladi. Bu – epik poeziyadir" [Belinskiy, 1955; 207].

MUNOZARA

Tarixga nazar soladigan bo'lsak, janrning paydo bo'lishi, u haqidagi nazariyalarni o'rganuvchi olimlar greklar nazariyasiga amal qiladilar. Mazkur nazariyaga ko'ra, asarda kim so'zlovchi ekanligiga asoslanib, janrlar asosan uch guruhga ajratiladi. Birinchisi – hikoya qiluvchi birinchi shaxsda gapirsa, poetik yoki lirik janr, ikkinchisi – hikoyachi o'zining tilidan va boshqa qahramonlar ham o'zining tilidan gapiruvchi epik yoki nasriy janr, uchinchisi – barcha dialoglarni qahramonlarning o'zlari olib boruvchi janr dramadir. Bularni farqlashning asosiy yana bir yo'li – so'zlovchining tinglovchiga bo'lgan munosabatiga e'tibor qaratishdir [Kuchkarova, 2022; 23]. Kitobxon uchun esa janr bu – muayyan voqeliklarning qulay ifodasi, aynan janr talabi bilan tanlangan ifoda yo'li sabab biz detektiv hikoyani romatnikadan, lirik she'rni tragediya yoxud komediyadan farqlaymiz. Shuningdek, biz u orqali kerakli narsa haqida faraz qilamiz va turli voqealarning kuzatuvchisiga aylanamiz. Detektiv hikoya o'qiyotib, tragediya o'qiyotganimizdagi voqealar sodir bo'lishini kutmaymiz.

Nemis adabiyotshunosligida ham janrlar lirik, epik va dramatik turlarga ajratib o'rganiladi. Biroq epik janr va uning shakllari xususida fikrlar turlicha. Hikoya

shaklidagi xalq kitoblari, “Märchen” (ertaklar), “Sage” (afsona, nem. “afsona”, qadimda xalqlarning bir-biriga soʻzlab berishi orqali yuzaga kelgan, tabiat va jamiyatdan olingan, miflar singari voqealardir), “Fabel” (masal), “Schwank” (nem. qadimda asosan jamiyatning quyi qatlamiga mansub shaxslar hayotidan olingan qisqa matnlar boʻlib, unda ikkita qarama-qarshi tomonlar (mas. boy va kambagʻal, xoʻjayin va qul, mugʻombir va sodda)ning bir-birlariga hazil-mutoyiba tarzidagi soʻz oʻyinlaridir), “Legende” (nem. “rivoyat” oʻz eʼtiqodlari uchun jon fido qilganlarning va din peshvolari hayotlariga oid voqealarni ifodalagan, keyinchalik XV asrdan boshlab cherkovdan tashqariga tarqalgan), novella va romanlarga boʻlingan. Kichik epik janrga “Märchen” (ertak), “Gleichnis” (nem. “masal” maʼnosini anglatadi), “Kurzgeschichte” (nem. qisqa, loʻnda, faqat bitta voqelikni yoritishga qaratilgan hikoya turi), “Lügengeschichte” (nem. “lof” mazmunida keladi) “Novelle” (novella), “Erzählung” (hikoya)lar kirs, katta epik janrga roman, epos, “Saga” (nem. yozma yodgorlik shaklidagi qissalar)lardan iborat boʻladi. Ayrim nemis manbalarida keltirilishicha, epik janrlar uch turga – kichik, oʻrta va katta epik janrlarga boʻlinadi. Kichik epik janrlarga – “Märchen”, “Sage”/“Legende” (afsona/rivoyatlar), “Fabel” (masal), “Parabel”/“Gleichnis” (masal), “Kalendergeschichte” (taqvim bitiklari), “Schwank” (matal), “Anekdote” (anekdot), “Kurzgeschichte” (kichik hikoyalar), “Reportage” (reportajlar) kirs, oʻrta epik janrga novella va hikoyalar, katta epik janrga – roman, eposlar kiradi [Langermann & Friedrich, 2007].

Yana bir qator adabiyotshunoslar esa bu tasniflashni ikki qismga ajratadi [Staiger, 1983]. Ular epik turni kichik va katta nasriy janrlarga ajratishadi. Kichik nasriy janrlarga “Märchen”, “Sage”/“Legende” (afsona/rivoyatlar), “Fabel” (masal), “Parabel”/“Gleichnis” (masal), “Kalendergeschichte” (taqvim bitiklari), “Schwank” (matal), “Anekdote” (anekdot), “Kurzgeschichte” (kichik hikoyalar), “Reportage” (reportajlar), novella va hikoyalar kiritilsa, roman va eposni katta nasriy janr toifasiga kiritishadi. Adabiyotshunoslikda nasriy janrlar tasnifi adabiyotning milliy xususiyatlari, til imkoniyatlariga bogʻliq ravishda turlicha amalga oshirilgan.

Adabiyotshunoslikda nasriy janrlar tasnifi adabiyotning milliy xususiyatlari, til imkoniyatlariga bogʻliq ravishda turlicha amalga oshirilgan. “Kurzgeschichte” (kichik hikoyalar) janrining paydo boʻlishi XIX asrda gazetalar rivoji bilan chambarchas bogʻliqdir. Amerikalik yozuvchilar uchun kitob bozoridan koʻra gazetalar sahifasida oʻz asarlari bilan chiqishlari muhimroq boʻlgan, sababi bu holat mashhurlik uchun qoʻyilgan dadil qadamlar hisoblangan. Mazkur janr dastavval “short story” nomi bilan ingliz va Amerika adabiyotida uchray boshlagan. E.A. Po, Sh.Anderson, F.S. Fitsjerald, E.Xeminguey, O.Genri, U.Folkner, S.Levis, H.Slezar kabi ijodkorlar tomonidan dastlabki kichik hikoyalar yozildi. Nemis tilidagi ilk kichik hikoyalar 1900-yillarda paydo boʻldi. Bu janrda dastlab ijod qilgan adiblar ekspressionizm oqimi vakillari A.Dyublin va R.Muzil boʻlgan [Kuchkarova, 2022].

Nemis adabiyotida kichik hikoyalar 1945-yildan keyingi “Kahlschlag” (Reinigung der Sprache – “tilni tozalash” maʼnosida, Germaniyadagi ikkinchi jahon urushidan keyin to 1950-yillargacha davom etgan adabiy oqim; u “Trümmerliteratur” deb ham yuritilgan) oqimining taʼsirida vujudga keldi. Nemis ijodkorlari amerikalik

yoʻzuvchilarga qaraganda mazkur janrga oʻzgacha tus berishdi. Ular kichik hikoyalar tilining sodda va ravon, har qanday jimjimador qochiriqlarsiz, gʻoyaviy qarashlarsiz boʻlishiga zamin hozirladilar. Yangi janrda “Gruppe 47” (Gruppe 47 – nemis adibi X.V. Rixter tomonidan nemiszabon mualliflarni birlashtirish uchun tashkil qilingan uyushma; 1947–1967-yillarda faoliyat olib borgan) vakillari samarali ijod qilganlar, ulardan H.Byoll, I.Baxman, M.Valtser, G.Grass, P.Biksel kabi mashhur adiblar shular jumlasidandir.

Mazkur janrga bir necha jihatdan qatʼiy talablar qoʻyilgan:

(a) *shakliga* koʻra – oʻta ixchamlik; poyezdda – temiryoʻlning bir bekatlik masofasida oʻqib tugallanish; besh sahifadan oshmaslik;

(b) *mazmuniga* koʻra – biror voqeadan parcha; voqealar bitta joyda kechishi; qahramonlar bir yoki ikki nafar boʻlishi; hayotiy voqealar tabiiy holatda tilga olinishi; bosh qahramon “taqdir sinov”larini, muammoli holatni boshdan kechirishi, qoʻrquv, shok holatida boʻlishi mumkin; bosh qahramon xarakterida oʻta ikkilanish ustunlik qilishi mumkin; asar voqealari kundalik hayotdan olinadi; qahramonlar faqat koʻrsatiladi, xarakter jihatdan shakllantirilmaydi; asarning kirish, sharh hamda yakuniy fikri berilmaydi; hikoyachi neytral boʻladi;

(d) *voqelik yechimiga* koʻra – voqeaga toʻgʻridan toʻgʻri yondashish, koʻpincha hikoya qahramonlari uchun shaxssiz olmosh qoʻllaniladi; toʻsatdan roʻy bergan voqelik; muammoli vaziyatga sharh va yechim berilmaydi, hikoyachi tomonidan voqeaga aniqlik kiritilmaydi; kitobxonda biroz tushkun kayfiyat tugʻdirsa-da, muammoli vaziyatdan chiqib ketishni uning oʻziga qoldiradi; voqea haqida kitobxon uzoq oʻylab yurishini taʼminlaydi.

(e) *tuzilishiga* koʻra – hikoyachi(roviiy)ning oʻrni qatʼiy; mustahkam syujet; kulminatsion nuqta va voqea yakunining birga kelishi;

(f) *qahramonlar tanlashga* koʻra – voqea markazida oddiy inson turadi; koʻpincha qahramonlar bir yoki ikki kishidan iborat boʻladi; qahramonlar faqat tasvirlanadi, xarakter jihatdan shakllantirilmaydi;

(g) *til nuqtayi nazaridan* – asosan sodda, xalqchil boʻlishi lozim.

P.Gotchning taʼrificha, kichik hikoyalarning miqdori eng kami 500-2000 ta va eng koʻpi bilan 15000-30000 ta soʻzdan iborat boʻlishi kerakligiga qaramasdan, ushbu janrning hajmi haqida hech qanday aniq maʼlumotlar qayd qilinmagan. U kichik hikoyalarni tasnifini quyidagicha ifodalaydi [Goetsch, 1972]:

(1) *tuzilishi jihatidan*: baʼzan voqea-hodisalarning ochiq yoritilishining cheklanishi, qahramonlar sonining cheklanishi, voqea sodir boʻlayotgan joyning tasviridan qochish, stilistik uslubning kamligi va koʻproq soʻzlashuv tilida bayon etilishi;

(2) *mazmuni jihatidan*: bir qarashda noodatiy, gʻayritabiiy koʻrinsa-da, boshqa tomondan voqealar qahramonlarning hayotidagi kechinmalar, yolgʻizlik, qoʻrquv, chorasizlik kabi holatlar tasvirlanadi [Goetsch, 1978; 34].

Nemis adabiyotida kichik hikoya janridagi asarlari bilan mashhur ijodkor Z.Lents taʼbiricha, “kichik hikoyalar taom toʻldirilgan likopcha misoli, uning mazasini tatib koʻrish – kitobxonning ishidir” [Reiter, 1982; 560]. Adabiyotshunos L.Roner

esa, kichik hikoyalarda voqelik go‘yo ko‘z ochib yumguningizcha sodir bo‘lishi bilan xarakterli ekanligini ta’kidlaydi [Rohner, 1973; 56].

Shvetsariya zamonaviy adabiyotida XX asrga kelib kichik nasriy janrlar taraqqiyoti yana-da ommalashdi. Xususan, F.Xoler, P.Biksel, O.Gomringer, S.Vechli kabi adiblar o‘z ijodi orqali mazkur janrlar rivojiga hissa qo‘shishdi [Kuchkarova, 2022; 38].

Keyingi yillardagi Yevropa adabiyotidagi asarlar yangi ohanglar, ifoda tarzi esa yangi usullar bilan boyib bormoqda. Ifodaning qabariqligi, tasvirning serqatlamligi, mazmun, ruhiy holat manzaralarining rang-barangligi bilan, insonni badiiy tadqiq etishga badiiy usullarning o‘z o‘rnini bo‘shatib borayotgani bilan alohidalik kasb etadi. Qahramon xayoloti va kechinmalaridagi jarayonlarni tasvir obyektiga aylantirish, reallashtirish, uni yana-da to‘laroq ilg‘ashga intilishi bilan o‘ziga xosdir. XX asr oxiri va XXI asr boshlari Shveytsariya adabiyoti kichik janrlarning nechog‘li ahamiyatli ekanini ko‘rsatdi. Xususan, P.Biksel – mashhur shveytsar nosiri va kolumnisti hisoblanadi va u bugunga qadar 7 ta kichik hikoya, 11 ta turkum hikoyalar to‘plami muallifidir. Ilk kichik hikoyalari 1964-yilda “Blum xonim Milxman bilan tanishmoq istagida” (“Eigentlich möchte Frau Blum den Milchmann kennenlernen” [Bichsel, 1996] sarlavhasi bilan o‘zida 21 ta kichik hikoyani qamrab olgan to‘plami nashrdan chiqdi. Bolalarga mo‘ljallangan mazkur to‘plam biroz yumoristik syujetga ega bo‘lib, uning davomi sifatida adib 1969-yilda “Bolalar hikoyalari” (“Kindergeschichten”) deb nomlangan 7 ta kichik hikoyani o‘z ichiga olgan to‘plamni chop ettirdi [Bichsel, 1996]. Adabiyotshunos olim G.Xovenning ta’kidlashicha, P.Biksel – hajman kichik, biroq mazmunan teran hikoyalar muallifidir [Hoven, 1984; 98]. P.Biksel gazetalarda qisqa lirik hikoyalari bilan tanila boshlagan. Biroq 1970–1980-yillardagi suxandonlik faoliyati ijodini chetga chiqarib qo‘yishga majbur qiladi. Ammo yangi tanilayotgan yozuvchilar aynan P.Bikselning usulida ijod qilishni boshlaganligi kichik nasriy janrlarning Shveytsariya adabiyotida alohida o‘ringa ega bo‘lib borayotganligini ko‘rsatuvchi omillardan bo‘ldi.

P.Biksel shveytsar adabiyotida qisqa hikoyalar janrini yangi darajaga olib chiqa oldi. Uning turli yoshdagi qatlamga munosib juda ko‘plab asarlari mavjud. Uning ijod namunalarida dolzarb siyosiy mavzular hamda hayotiy ko‘rinishlarning tasviri bilan kitobxon diqqatini tortadi. Uning asarlari hayotiylikka asoslanganligi uchun, xalqona ruhga ega ekanligi bilan o‘z o‘quvchilariga ega. Kitobxon o‘qish jarayonida o‘ziga tanish bo‘lgan manzaralarga duch keladi. Hayotning har bir jabhasida uchrab turadigan holatlarning guvohi bo‘ladi. Bu esa kitobxonni adib asarlariga yanada bog‘laydi. P.Biksel ijodi faqat o‘z yurtdoshlarini emas, o‘zga millat vakillarini ham bee’tibor qoldirmaydi. Shu sababli ham, uning asarlarining bir necha tillardagi tarjimalari mavjud. Bu esa adibning ijodiga qiziqish ortayotganligidan dalolatdir. Uning asarlaridagi qahramonlar asosan oddiy xalq vakillari. Kitobxon uni o‘qiyotganda o‘z yaqinini ko‘rgandek his qiladi, chunki barcha uchun umumiy bo‘lgan holatlar ko‘p uchraydi. Ko‘rinishidan e’tiborga molik bo‘lmagan bir voqea tarzida ko‘rinsa ham, lekin yozuvchining mahorati bilan u kitobxon nazarida qiziq bir asar tusini oladi. Hajman kichik bo‘lgan nasriy asarlarda, hamma uchun qiziqarli bo‘la

oladigan voqealarni aks ettiradi. Badiiy soʻz sanʼatkori P.Bikselning ijodini oʻrgana turib, uning asosiy yoʻnalishlaridan biri reallikka yondashuvdir, yaʼni hayotiylikka asoslangan ijod qirrasini alohida eʼtiborimizni tortadi [Kuchkarova, 2022; 36]. Buning isboti sifatida uning qalamiga mansub “Qiz” (“Tocher”) kichik hikoyasini koʻrib chiqamiz. Ushbu hikoya muallifning 1964-yilda 21 ta kichik hikoyalarni oʻzida jamlagan “Blum xonim Milxman bilan uchrashish istagida” deb nomlangan hikoyalar toʻplamida chop ettirilgan.

Asarda har oqshom shaharda ishlaydigan qizini kechki ovqat vaqtida stol atrofida kutayotgan ota-ona tasvirlangan. P.Biksel soʻzsiz suhbatlar va ota-onalarning oʻy-fikrlari orqali ular farzandini shaharda katta odam boʻlib ishlashini tasavvur qilishlari va shu bilan birga, uni yoʻqotishdan qoʻrqishlarini koʻrsatadi. Ota-ona va farzand oʻrtasidagi ikki tomonlama masofa kichik tafsilotlarda ishlab chiqilgan. Ular qizining ishxona va shahardagi hayotini tasavvur qilishga behuda urinishadi. Hikoyada kuni boʻyi qizining shahardan kelishini kutib turgan ota-ona qizi bilan gaplashish istagida unga savollar berishadi, lekin afsuski, qiz barchasiga qisqa javob berish bilan kifoyalanadi. Asarning asosiy motivi bugungi kunda yosh avlod hayotidagi oʻzgarishlar tufayli ota-ona va farzand oʻrtasidagi boʻshliq kengayishini koʻrsatishdir [Bichsel, 1996]. Asar kichik hikoya uslubiga xos ravishda toʻgʻridan toʻgʻri voqea bilan boshlanib, yakuni ochiq qoldirilgan. Yozuvchi bu orqali oʻquvchini oʻylashga va fikrlashga chorlaydi hamda voqealar rivojini oʻquvchining ixtiyorida qoldiradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy adabiyotshunoslikda kichik nasriy janrlar oʻziga xos evolyutsion bosqichni bosib oʻtganligini kuzatishimiz mumkin. Xususan, zamonaviy oʻzbek adabiyotida XX asr oʻrtalarida boʻlgani kabi kichik nasriy janr turlaridan boʻlgan novella oʻrnini toʻligʻicha hikoya va qisqa hikoya (drabl)lar egallagan boʻlsa, Yevropaning nemis tili adabiyoti muhitida “Kurzgeschichte” (kichik hikoyalar) janri ustuvorlik qila boshladi. Kichik nasriy janrlarning taraqqiy etishi, yozuvchilarning oʻziga xos uslubining shakllanishi, badiiy ifodaning soddalashuviga xizmat qilmoqda. Mazkur janrlarda yaratilgan asarlar endilikda mavzu koʻlami va mohiyatning yoritilish uslubiga koʻra butunlay noanʼanaviylik kasb etmoqdaki, ularni alohida tadqiq etishga adabiyotshunoslar tomonidan katta eʼtibor qaratilmoqda. Jumladan, P.Biksel ijodiga nazar tashlar ekanmiz, uning asarlari yaratilishiga oʻz davridagi ijtimoiy muhitning taʼsirini inkor eta olmaymiz. Zamonaviy adabiyotda kichik janrlarning har xil turlariga ijodkorlar tomonidan qoʻl urilishi adabiy tanqidchilarning bu masalaga eʼtibor qaratishiga olib keldi. Shveytsariya adabiyotida kichik janr paydo boʻlishi va rivojlanish tamoyillariga koʻra bir necha davrni oʻz ichiga qamrab oladi:

1. XVIII va XIX asr boshlarini oʻz ichiga oluvchi ilk bosqich, bu davrda tarixiy solnomalar yaratish orqali nasriy adabiyotga tamal toshi qoʻyilgani aniqlandi.

2. XIX asrdan boshlab XX asrning 20-yillariga qadar davom etgan 2-bosqichda realizm uslubi ustuvorlik qildi. Shu davrda yozuvchilar kichik epik janr namunasi boʻlgan hikoyalarga koʻproq murojaat qilishdi.

3. XX asrning 30-yillaridan boshlangan 3-bosqichda kichik nasriy janrlar, mitti,

kichik, o'rta hajmdagi va hajm jihatidan katta hikoyalar rivoji yanada jadallashdi.

4. XXI asr boshidan 4-bosqich rivojlana boshladi. Kichik nasriy janrlar endi uslub va mavzu ko'lamini jihatidan ham noan'anaviylik kasb eta boshladi.

Maqolaning bosh mavzusi kichik hikoyalar qatorida "kolumne" janrining adabiyotga kirib kelish tarixi va uning boshqa janrlardan farqlarini ko'rsatib berish hamdir. Shu borada matn turlarini o'rganib, shunday xulosaga keldikki, "kolumne" matn turi nafaqat jurnalistik, balki badiiy matnlar tarkibiga kiradi, faqat ular uslubi, hajmi va mazmuniga qarab faqrlanadi. Bugungi kun o'quvchisi matn turlarini yaxshi bilishi va to'g'ri farqlay olishi lozim, shu jumladan, kolumne, kamentar va glosse matnlari bir-biriga o'xshash bo'lsa-da, lekin ular ma'lum jihatlari bilan ajralib turadi. O'ylaymizki, badiiy matnlar ichidan o'rin olgan kolumnelarni o'quvchilar sevib o'qishadi va kelajakda o'zbek adabiyoti maydonida ham mashhur kolumnistlar yetishib chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Adamzik, K. (2005). Textsorten im Fremdsprachenunterricht – Theorie und Praxis. In K.Adamzik & W.-D. Krause (Hrsg.), *Text-Arbeiten. Textsorten im fremd- und muttersprachlichen Unterricht an Schule und Hochschule* (S. 205–237). Tübingen: Narr.
2. Adamzik, K. (2018). Texte, Textsorten. In E.Neuland & P.Schlobinski (Hrsg.), *Handbuch Sprache in sozialen Gruppen* (S. 149-167). Berlin, Boston: De Gruyter. <https://doi.org/10.1515/9783110296136-008>.
3. Aristotel. (1980). *Poetika*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
4. Belinskiy, V.G. (1955). *Tanlangan asarlar*. Toshkent: O'zbekiston SSR davlat nashriyoti.
5. Bergmann, J. (2016). Nachruf Thomas Luckmann (1927–2016). *Zeitschrift für Soziologie*, 45(4), 298–304. <https://doi.org/10.1515/zfsoz-2015-1017>.
6. Bichsel, P. (1996). *Eigentlich möchte Frau Blum den Milchmann kennenlernen*. Berlin: Suhrkamp Verlag.
7. Bichsel, P. (2015). *Über das Wetter reden: Kolumnen 2012–2015*. Berlin: Suhrkamp Verlag.
8. Bracker, H., & Stückrath, J. (1992). *Literaturwissenschaft: Ein Grundkurs*. Hamburg: Rowohlt Verlag.
9. Brinker, K. (2005). *Linguistische Textanalyse: eine Einführung in Grundbegriffe und Methoden*. Berlin: Erich Schmidt Verlag.
10. Goetsch, P. (1972). Die Begrenzung der Short Story. In H.Bungert (Ed.), *Die amerikanische Short Story: Theorie und Entwicklung* (pp. 368–387). Darmstadt: Wissenschaftliche Buchgesellschaft.
11. Goetsch, P. (1978). *Literarische und soziale Bedingungen erzählerischer Kurzformen: Die Short Story*. Tübingen: Deutsches Institut für Fernstudien an der Universität Tübingen.
12. Heinemann, M. (2000). 54. Textsorten des Alltags. In K.Brinker, G.Antos, W.Heinemann & S.Sager (Hrsg.), *Text- und Gesprächslinguistik* (1. Halbband, S. 604–614). Berlin, Boston: De Gruyter Mouton. <https://doi.org/10.1515/9783110194067-056>.
13. Hempfer, K.W. (1973). *Gattungstheorie. Information und Synthese*. München: W.Fink Verlag.
14. Hotamov, N., & Sarimsoqov, B. (1979). *Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati*. Toshkent: O'qituvchi.
15. Hoven, H. (Ed.). (1984). *Peter Bichsel: Auskunft für Leser*. Darmstadt: Luchterhand.
16. Jürgens, F. (2005). Mündlichkeit und Schriftlichkeit in Texten bzw. Textsorten. *Der Deutschunterricht*, 57(1), 23–33.
17. Kolumne. (o.J.). In *Wortwuchs.net*. Abgerufen von <https://wortwuchs.net/kolumne/>.
18. Kuchkarova, X.Sh. (2022). Frans Holer ijodida kichik janrlar poetikasi. *Filol. fan. fals. dok. diss.* Toshkent: Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti.

19. Langermann, D., & Friedrich, A.-C. (2007). *Duden Abiturwissen: Literatur*. Mannheim: Bibliographisches Institut.
20. Majidova, M.S. (2023a). Einsatz der DLL-Einheiten in der Hochschulbildung: Schwierigkeiten und Lösungsansätze. *O'zbekistonda xorijiy tillar*, 4(51), 61–76. <https://doi.org/10.36078/1692622934>.
21. Majidova, M. (2023b). Chet tili darslarida qo'shiqdan foydalanishning ahamiyati. *Innovation in Technology and Science Education*, 2(9), 739–743.
22. Majidova, M. (2023c). Matn turlari va kolumne matn turining uslubi, shakli va mazmuni. "Markaziy Osiyoda nemis tili o'qitishning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to'plami (128–133-b.). Toshkent: O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.
23. Marsch, E. (1979). Gattungssystem und Gattungswandel. Die Gattungsfrage zwischen Strukturalismus und Literaturgeschichte. In W.Haubrichs (Hrsg.), *Probleme der Literaturgeschichtsschreibung* (S. 105–15). Göttingen: Vandenhoeck & Ruprecht.
24. Müller-Dyes, K. (1978). *Literarische Gattungen. Lyrik, Epik, Dramatik*. Freiburg: Herder.
25. Püschel, U. (1997). „Puzzle-Texte“ – Bemerkungen zum Textbegriff. In G.Antos & H.Tietz (Ed.), *Die Zukunft der Textlinguistik: Traditionen, Transformationen, Trends* (S. 27–42). Berlin, New York: Max Niemeyer Verlag. <https://doi.org/10.1515/9783110940831.27>.
26. Reiter, N. (1982). *Wertstrukturen im erzählerischen Werk von Siegfried Lenz*. Frankfurt: Lang.
27. Rohner, L. (1973). *Theorie der Kurzgeschichte*. Frankfurt am Main: Athenäum.
28. Schwitalla, J. (2012). *Gesprochenes Deutsch: Eine Einführung* (4. Aufl.). Berlin: Erich Schmidt Verlag.
29. Spörl, U. (2004). *Basislexikon Literaturwissenschaft* (2. Aufl.). Paderborn: Verlag Schöningh.
30. Staiger, E. (1983). *Grundbegriffe der Poetik*. München: Deutscher Taschenbuch Verlag.
31. Trim, J., North, B., Coste, D., & Sheils, J. (2001). *Gemeinsamer europäischer Referenzrahmen für Sprachen: lernen, lehren, beurteilen*. Berlin: Langenscheidt.
32. Christian, F. (2009). Texte, Gattungen, Textsorten und ihre Verwendung in Lesebüchern. *PhD diss.* Gießen: Justus-Liebig-Universität Gießen.

REFERENCES

1. Adamzik, K. (2005). Text types in foreign language teaching – theory and practice. In K.Adamzik & W.-D. Krause (Eds.), *Text Work: Text Types in Foreign and Native Language Teaching at School and University* (pp. 205–237). Tübingen: Narr.
2. Adamzik, K. (2018). Texts, text types. In E.Neuland & P.Schlobinski (Eds.), *Handbook of Language in Social Groups* (pp. 149–167). Berlin, Boston: De Gruyter. <https://doi.org/10.1515/9783110296136-008>.
3. Aristotle. (1980). *Poetics*. Tashkent: Literature and Art Publishing House named after Gafur Gulam.
4. Belinsky, V.G. (1955). *Selected works*. Tashkent: State Publishing House of the Uzbek SSR.
5. Bergmann, J. (2016). Obituary: Thomas Luckmann (1927–2016). *Journal of Sociology*, 45(4), 298–304. <https://doi.org/10.1515/zfsoz-2015-1017>.
6. Bichsel, P. (1996). *Actually, Mrs. Blum would like to meet the milkman*. Berlin: Suhrkamp Publishing.
7. Bichsel, P. (2015). *Talking about the weather: Columns 2012–2015*. Berlin: Suhrkamp Publishing.
8. Brackert, H., & Stückrath, J. (1992). *Literary studies: An introductory course*. Hamburg: Rowohlt Publishing.
9. Brinker, K. (2005). *Linguistic text analysis: An introduction to basic concepts and methods*. Berlin: Erich Schmidt Publishing.
10. Christian, F. (2009). Texts, genres, text types and their use in reading books. *PhD thes.*

- Giessen: Justus Liebig University Giessen.
11. Goetsch, P. (1972). The limits of the short story. In H.Bungert (Ed.), *The American Short Story: Theory and Development* (pp. 368–387). Darmstadt: Scientific Book Society.
 12. Goetsch, P. (1978). *Literary and social conditions of narrative short forms: The short story*. Tübingen: German Institute for Distance Learning at the University of Tübingen.
 13. Heinemann, M. (2000). 54. Everyday text types. In K.Brinker, G.Antos, W.Heinemann, & S.Sager (Eds.), *Text and Discourse Linguistics* (Vol. 1, pp. 604–614). Berlin, Boston: De Gruyter Mouton. <https://doi.org/10.1515/9783110194067-056>.
 14. Hempfer, K.W. (1973). *Genre theory: Information and synthesis*. Munich: W.Fink Publishing.
 15. Hoven, H. (Ed.). (1984). *Peter Bichsel: Information for readers*. Darmstadt: Luchterhand Publishing House.
 16. Jürgens, F. (2005). Orality and literacy in texts and text types. *German Language Teaching*, 57(1), 23–33.
 17. Khotamov, N., & Sarimsakov, B. (1979). *Russian–Uzbek explanatory dictionary of literary studies terms*. Tashkent: Publishing House of ‘Teacher’.
 18. Kolumne. (n.d.). In *Wortwuchs.net*. Retrieved from <https://wortwuchs.net/kolumne/>.
 19. Kuchkarova, Kh.Sh. (2022). Poetics of small genres in the works of Franz Hohler. *PhD thes. philol. scien*. Tashkent: National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek.
 20. Langermann, D., & Friedrich, A.-C. (2007). *Duden Abitur knowledge: Literature*. Mannheim: Bibliographic Institute.
 21. Majidova, M.S. (2023a). Use of DLL units in higher education: Challenges and solution approaches. *Foreign Languages in Uzbekistan*, 4(51), 61–76. <https://doi.org/10.36078/1692622934>.
 22. Majidova, M. (2023b). The importance of using songs in foreign language lessons. *Innovation in Technology and Science Education*, 2(9), 739–743.
 23. Majidova, M. (2023c). Text types and the style, form, and content of the column text type. In *Proceedings of the International Scientific-Practical Conference on “Topical Issues of Teaching the German Language in Central Asia”* (pp. 128–133). Tashkent: Uzbekistan State World Languages University.
 24. Marsch, E. (1979). Genre system and genre change: The genre question between structuralism and literary history. In W.Haubrichs (Ed.), *Problems of Literary Historiography* (pp. 105–115). Göttingen: Vandenhoeck & Ruprecht.
 25. Müller-Dyes, K. (1978). *Literary Genres: Lyric, epic, drama*. Freiburg: Herder Publishing.
 26. Püschel, U. (1997). “Puzzle Texts” – Remarks on the concept of text. In G.Antos & H.Tietz (Eds.), *The Future of Text Linguistics: Traditions, Transformations, Trends* (pp. 27–42). Berlin, New York: Max Niemeyer Publishing. <https://doi.org/10.1515/9783110940831.27>.
 27. Reiter, N. (1982). *Value structures in the narrative works of Siegfried Lenz*. Frankfurt: Lang Publishing.
 28. Rohner, L. (1973). *Theory of the short story*. Frankfurt am Main: Athenäum Publishing.
 29. Schwitalla, J. (2012). *Spoken German: An introduction* (4th. ed.). Berlin: Erich Schmidt Publishing.
 30. Spörl, U. (2004). *Basic lexicon of literary studies* (2nd ed.). Paderborn: Schöningh Publishing.
 31. Staiger, E. (1983). *Basic concepts of poetics*. Munich: Deutscher Taschenbuch Publishing.
 32. Trim, J., North, B., Coste, D., & Sheils, J. (2001). *Common European framework of reference for languages: Learning, teaching, assessment*. Berlin: Langenscheidt.